

Óralova Nodirabegim Ótkir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

MI-62 guruh talabasi

TRANZAKSIYA XARAJATLARINI O'ZGARIB TURISH MUAMMOSI VA ULARNI KAMAYTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada tranzaksiya harajatlarining kelib chiqish sabablari, oqibatlar va uni bartaraf etish chora-tadbirlari, shu bilan birga mamlakatimizda sohaga oid olib borilayotgan islohotlar va tranzaksiya bilan bog'liq muammolarni hal qilishda chet el iqtisodchi olimlarining taklif mulohazlari bilan boyitgan holda, o'rganilgan adabiyotlar natijasida mavzu yoritib berildi.

Kalit so'zlar: tranzaksiya, savdo bitimi tranzaksiyasi, boshqaruv tranzaksiyasi, mukammallashtirish tranzaksiyasi, "ijobiy tranzaksiya", axborot.

Kirish: Transaksiya xarajatlarining mavjud bo'lishi transaksialarning u yoki bu turini vaqt va muhit sharoitiga mos ravishda yanada samarali bo'lishiga yordam beradi. Shuning uchun mazkur operatsiyalar tartibga soluvchi qonun-qoidalarga bog'liq holda transaksialarning turli xillariga bog'liq bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot jarayonida statistik, analitik kuzatuv, induktiv-deduktiv, baholash va boshqa tahlil usullaridan foydalanildi. O'rganilgan manbalar va adabiyotlar natijasida mavzu yo'liq yoritib berildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Transaksiya xarajatlari tushunchasini qo'llagan holda dastlabki tadqiqotlar R.Kouz [1] tomonidan firmalar faoliyatini tahlil qilish uchun o'tkazilgan. Bunga XX asrning 60-yillarida sanoati rivojlangan yetakchi mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning keskinlashuvi sabab bo'lgan. Yagona xo'jalik tizimini yaratishga intilish, mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, mulkning yangi turlari, masalan, intellektual mulkning paydo bo'lishi, mulk huquqlarining alohida vakolatlariga bo'linib ketishi –bularning barchasi transaksiya xarajatlarining sezilarli darajada o'sishiga olib keldi.

Ukrainalik tadqiqotchi B.B.Деметьев [2] transaksialarni agentlarning siyosiy va iqtisodiy teng emasligi jihatidan qarab, bunda bir agent boshqasiga ta'sir ko'rsatishi va uni muayyan harakatlarni bajarishga majbur qilishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Rossiyalik tadqiqotchi С.В.Крикавский [3] transaksialarning marketing va logistika, ishlab chiqarish, moliyadagi harakatini hisobga olishni taklif etadi. O'z tadqiqotlarida O.B.Тарасенко [4] korxonani tashkil etishning turli variantlarida (yakka tartibda egalik qilish, shirkat, korporatsiya, moliyaviy kompaniya, notijorat tashkilot) transaksiya xarajatlarini belgilab beruvchi omillardagi ehtimoliy farqlarni tahlil qilgan.

Ammo iqtisodiy adabiyotlarda "transaksiya xarajatlari" iborasi mustahkam o'rin egallagan. Bunda transaksiya xarajatlariga berilgan quyidagi ta'rif keng tarqaldi: "transaksiya xarajatlari – axborotni to'plash va qayta ishlash xarajatlari, muzokaralar olib borish va qarorlar qabul qilish, shartnomaning bajarilishini nazorat qilish va yuridik himoyalash xarajatlari".Ilmiy manbalarda berilgan ta'riflarga muvofiq transaksiya xarajatlarini quyidagi tarzda tasniflash mumkin:

1) axborotni izlash xarajatlari (narxlar, mavjud tovarlar, yetkazib beruvchilar va iste'molchilar to'g'risida axborotni yig'ish va qayta ishlash uchun sarflangan vaqt);2) muzokaralar olib borish xarajatlari;3) almashuvga kirgan tovar va xizmatlarning miqdori va sifatini o'lchash xarajatlari;4) tafsirlash va mulkiy huquqlarni himoyalash xarajatlari;5) opportunistik xatti-harakatdan himoyalash

xarajatlari, bunda bitim shartlarini buzuvchi yoki bir tomonlama foyda olishga yo'naltirilgan noto'g'ri xatti-harakat tushuniladi.

Tahlil va natijalar: Ingliz tilidagi "transaction" so'zini ikki tarkibiy qismga ajratish mumkin, yani "trans" o'zbek tilida "o'zaro" so'zini bildiradi, "action" esa harakat degan ma'noni bildiradi. Demak, tranzaksiya- bu iqtisodiy subyektlarning har qanday o'zaro harakatini yoki o'zaro munosabatini anglatadi, qaysi kim bunda hech bolmaganda bitta hamkor ishtirok etishi zarur. Shunday qilib, tranzaksiya iqtisodiyot subyektlari ortasidagi o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat hisoblanadi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, "tranzaksiya" tushunchasiga mualliflar yondashuviga hamda tadqiqot obyektiga qarab turlicha ta'riflar berilgan bo'ladi.

Tranzaksiya - bu tovarlarni o'zaro almashish emas, balki jamiyat tomonidan yaratilgan mulkchilik huquqlari va erkinliklardan o'zgaralar foydasiga voz kechish va ularni o'zlashtirish hisoblanadi. Ushbu tranzaksiya ta'rifidan shu narsa kelib chiqadiki, tranzaksiyaning ma'nosi qandaydir narsalarni bevosita almashishni amalga oshirish emas balki qandaydir aktivlarga bo'lgan muayyan huquqlarning bir subyektdan boshqasiga o'tishini anglatadi.

Tranzaksiya - bu iqtisodiy jarayon hisoblanib ushbu jarayonda unda ishtirok etuvchi tomonlar muayyan iqtisodiy maqomga(mulkdor, foydalanuvchi maqomi va hkz) ega bo'lishadi yoki boshqalar undan voz kechadi

Har qanday shartnoma yoki bitim shartnoma tuzilishi uchun axborotni to'plash zarurligini nazarda tutadi. Bitim tuzish bosqichida xaridor sotuvchini topishi, narxlar haqida ma'lumotlar yig'ishi, sifatni baholashi, sotuvchini tanlashi va u bilan bitim tuzishi kerak bo'ladi. Sotuvchi bozorda joy sotib olishi, mahsulot sifati nazoratini olib borishi va uzluksiz ravishda narxlar haqida axborot yig'ishi lozim bo'ladi. Amalda har qanday bitim axborotni tahlil qilish: bozorni (marketing) tadqiq etish, xaridorni yoki sotuvchini qidirib topish, narxlar va bozorni tahlil qilish bilan kuzatiladi. Korxonalar uchun ushbu xarajatlar o'z xizmatlarini reklama qilish xarajatlari, buyurtmalarni qidirib topishda vositachilar xizmatlarining haqini to'lash bilan bog'liq.

Tranzaksiyalarni quyidagi 3ta turini ajratish mumkin.

1)savdo bitimi tranzaksiyasi- mulkiy huquq va erkinliklarni tasarrufdan chiqarish va o'zlashtirish jarayonini amalga oshirishga xizmat qiladi va uning amal qilishi uchun iqtisodiy manfaatlar hisobga olingan holda ikki tomonning roziligi kerak bo'ladi.

2) boshqaruv tranzaksiyasi- bunda asosiy tushuncha odamlar orasida bo'ladigan boshqaruv munosabatlari bo'lib, ushbu holatda qaror qabul qilish faqat bir tomonda bo'ladi.

3)mukammallashtirish tranzaksiyasi- bunda tomonlar huquqlarining nomutanosibliigi kuzatiladi, biroq boshqaruvchi tomon ornida huquqlar tasnifini amalga oshiruvchi jamoa boshqaruv organi ishtirok etadi. Bunday tranzaksiyalar orqali iqtisodiy agentlar orasida boylik qayta taqsimlanadi.

Yangi bilimlarga asoslangan iqtisodiyotga o'tish sharoitida korxonalar resurs tariqasida foydalanadigan axborotlar oqimi doimo oshib boradi. Tanqis resurs sifatida foydalaniladigan axborot sig'imining oshishi obyektiv ravishda bozorni o'rganish, u haqdagi axborotlarni to'plash, tahlil etish, saqlash va yangilash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, ya'ni tranzaksiya xarajatlari muttasil ortishiga olib keladi.

Tranzaksiya xarajatlarining ortishidagi axborotning ahamiyatini iqtisodchi olim K. Dalman asoslab bergan. Uning ta'rifiga ko'ra, "axborot yig'ish va qayta ishlash, muzokaralar o'tkazish va qaror qabul qilish, shartnomalar tuzish va ularning amal qilishi ustidan nazorat olib borish kabi faoliyatlardagi

xarajatlar transaksiya xarajatlari hisoblanadi”. Shuningdek, “ijobiy transaksiya” tushunchasining fanga kiritilishi olimning yirik yutuqlaridan biri bo’ldi.

Shuningdek, davlat darajasida transaksiyalar miqdori xususida O.B.Тарасенко [5] shunday fikr bildirgan: “makrodarajada transaksiya xarajatlari (YAIMda transaksiya sektori ulushi)ning oshishi, bir tomondan, ixtisoslashuvning o’sishi va mehnat taqsimoti, iqtisodiyotning legallashuvi tufayli, ikkinchi tomondan esa, tartibga solish xizmatlari bozorida davlat organlarining mavqei va hukumatning yuqori prinsipial tabiati tufayli kuzatiladi. Har qanday ishlab chiqarish, moliyaviy, boshqaruv transaksiyasi axborotga asoslanadi”.

Axborotning xarajat talabligi transaksiya xarajatlarini tushunish uchun yo‘l ochib beradi. Subyektlarga ishlab chiqarish, almashuv va iste’mol jarayonida talab etiladigan har qanday axborot muayyan say-harakatlar evaziga qo‘lga kiritiladi. Tegishli axborotni qidirish xarajatlari, asosan, vaqt bilan o‘lchanadi.

Har qanday shartnoma yoki bitim shartnoma tuzilishi uchun axborotni to‘plash zarurligini nazarda tutadi. Bitim tuzish bosqichida xaridor sotuvchini topishi, narxlar haqida ma’lumotlar yig‘ishi, sifatni baholashi, sotuvchini tanlashi va u bilan bitim tuzishi kerak bo‘ladi. Sotuvchi bozorda joy sotib olishi, mahsulot sifati nazoratini olib borishi va uzluksiz ravishda narxlar haqida axborot yig‘ishi lozim bo‘ladi. Amalda har qanday bitim axborotni tahlil qilish: bozorni (marketing) tadqiq etish, xaridorni yoki sotuvchini qidirib topish, narxlar va bozorni tahlil qilish bilan kuzatiladi. Korxonalar uchun ushbu xarajatlar o‘z xizmatlarini reklama qilish xarajatlari, buyurtmalarni qidirib topishda vositachilar xizmatlarining haqini to‘lash bilan bog‘liq.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, axborotning yetishmasligi va shaffof emasligi- xarajatlar ko‘payishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish uchun elektron bozorlarni keng joriy qilish orqali internet-tijoratni yo‘lga qo‘yish va u orqali 4 ta asosiy yutuqqa erishiladi[6]. Bular quyidagilar:

- Tranzaksiyani amalga oshirish uchun xaridor va sotuvchining bir vaqtning o‘zida bir joyda bo‘lishiga zaruratning yo‘qkigi;
- Bitimni tuzish uchun talab qilinadigan axborotni deyarli bepul olish mumkinligi;
- Axborotning ikki taraflama yo‘naltirilganligi (internet-tijorat sotuvchi bilan xaridor o‘rtasida ikki taraflama kommunikatsiyani oshirish imkonini beradi);
- Siyosiy va geografik to‘siqlarning mavjud emasligi tufayli bozorlarning globallashuvi;

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Благова В., Катъкало В.С., Славнова Д.С., Федотова Ю.В., Цытович Н.Н. – СПб.: Лениздат; CEV Press, 1996. – 702 с.
2. Дементьев В.В. Институты, поведение, власть // Постсоветский институционализм / Под ред. Р.М. Р.М. Нуреева, В.В. Дементьева. – Донецк: «Каштан», 2005. – С. 102-125.
3. Крикавский С.В. Инновационный потенциал логистического мышления// Украина та и региони на шляху до інноваційного суспільства/ концептуальні доповіді VII Міжнародної науково-практичної конференції. – Донецьк, 31 жовтня – 1 листопада 2006 р.: «Юго-Восток ЛТД», 2006, С. 55-74.
4. Тарасенко О.В. Факторы, которые влияют на уровень транзакционных издержек//Наукові праці Донецького національного технічного університету. Серія: економічна. Випуск 31-1(117). Донецьк, ДонНТУ, 2007. – С 120-125.
5. Набиходжаев А. “Ўзбекистон Республикаси иктисодиёти ривожининг асосий тенденциялари ва ишбилармонлик мухитини янада яхшилаш борасида кўрилайётган чоралар”



мавзусидаги маъруза-слайд маълумотлари. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт вазирлиги,
20 декабрь 2012 й.

6. Кузьминов Я.И. и др. Курс институциональной экономики: институты, сети, трансакционные издержки, контракты [Текст]: учебник для студентов вузов / Я.И.Кузьминов, К.А.Бендукидзе, М.М. Юдкевич. – М.: Изд. дом ГУ ВШЭ, 2006. XL, 442, [2] с. – Библиогр.: с. 410 – 426. – 5000 экз. – ISBN 5-7598-0303-4 (в пер.). с. 265.